

Akademik bilan mahorat darslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish maqsadida 2020-yil 1-dekabr kuni V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori, akademik Shavkat Ayupov Toshkent shahridagi Prezident maktabida "Maydonlar nazariyasi va uning tadbiqlari" mavzusida mahorat darslarini o'tdi. Dars yakunida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.

Bu kabi mahorat darslarining tashkil etilishi o'quvchi-yoshlarning akademiklar, olimlar bilan yaqindan muloqot qilish va shu orqali o'quvchilarni fanga qiziqtirish imkonini beradi.

